



Received: November 2, 2024
Accepted: December 23, 2024
Available online: December 25, 2024

Xadicha Raxmatullayeva

Tayanch doktorant
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Khadicha Rakhmatullaeva

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: rakhmatkhadicha@gmail.com
ORCID iD: 0009-0007-5110-1943

ANTIUTOPIK ADABIYOT EVOLYUTSIYASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI: KENG QAMROVLI TAHLIL

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot-maqolada antiutopiya adabiy janri va uning zamonaviy adabiyotdagi o'rni, uning inson tafakkuri hamda jamiyat rivojiga ta'siri tahlil qilinadi. Muallif antiutopiya janrini globalizatsiya jarayonida insoniyatni ogohlantiruvchi vosita sifatida, erkinlik, individuallik kabi insoniy qadriyatlarining yo'qolish xavfini aks ettiruvchi janr sifatida ta'riflaydi. Utopik janrning T.Mor "Utopiya" asari bilan boshlangan tarixiga, uning "mukammal jamiyat" konsepsiyasiga va rivojlanish jarayoniga e'tiborni qaratadi.

Maqolada antiutopiya janrining insoniyat kelajagi va ijtimoiy tizimlarning salbiy oqibatlari haqida ogohlantiruvchi, kuchaytirilgan tahdidlarni yoritishdagi o'rni tahlil etiladi. Ushbu janr erkinlik, nazorat, shaxsiylik, texnologiya va insonning o'ziga xosligini saqlash masalalariga qaratilgan bo'lib, bu masalalarni o'rganish orqali jamiyatning kelajakdagi xavflari haqida ogohlantiradi.

Tadqiqot davomida struktural, tarixiy-madaniy, tasniflash va tavsifiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqotda mazkur usullardan foydalangan holda antiutopik asarlarda zamon va makon birliklari, qahramonlarning ruhiy holati va ular yashayotgan muhitning ta'siri atroficha o'rganilgan va bu metodologiya orqali antiutopiya janrining mazmun-mohiyati kengroq ochib berilgan.

XX asrda ushbu janr kapitalistik monopoliyalashuv, totalitarizm va texnologiyaning nazorat vositasi sifatida ishlatilgan asarlarga tayanadi. Y.Zamyatin, J.Oruell va O.Xakslı kabi yozuvchilar antiutopik asarlarida kelajakdagi

THE EVOLUTION AND CHARACTERISTICS OF ANTIUTOPIAN LITERATURE: A COMPREHENSIVE ANALYSIS

ABSTRACT

This article examines the genre of antiutopian literature and its significance in contemporary literature, as well as its influence on human cognition and societal evolution. The article conceptualizes antiutopian literature as a mechanism for cautioning humanity within the context of globalization, reflecting the potential erosion of human values such as liberty and individuality. The article explores the historical development of the utopian genre, commencing with T.More's "Utopia", its conceptualization of an "ideal society", and its evolutionary process.

The article analyzes the function of antiutopian literature in alerting readers to the potential negative consequences of humanity's future and social systems by accentuating and amplifying perceived threats. This genre addresses issues about freedom, control, individuality, technology, and the preservation of human uniqueness, and through the exploration of these issues, it serves as a cautionary narrative about potential societal risks. The research methodology employs structural analysis, historical-cultural analysis, classification, and descriptive analysis techniques.

In the 20th century, this genre was associated with capitalist monopolization, totalitarianism, and the utilization of technology as a mechanism of control. Authors such as Y.Zamyatin, G.Orwell, and A.Huxley, through their antiutopian works, analyze future risks and encourage readers to critically consider the construction of the future. Furthermore, the article examines the cautionary and explanatory functions of the genre based on

xavflarni tahlil qilib, o'quvchilarni ehtiyotkorlik bilan kelajakni qurishga chaqiradilar. Shu bilan birga, muallif L.Sarjentning antiutopiya haqidagi ta'rifidan foydalangan holda janrning ogohlantiruvchi va tushuntiruvchi funksiyalarini itahlil qiladi. Ushbu tadqiqot, antiutopiyaning ijtimoiy va adabiy ahamiyatini aniqlash bilan birga, uning zamonaviy jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatishini baholashda foydali bo'ladigan yondashuvlarni taqdim etadi.

Tadqiqotning asosiy xulosalariga ko'ra, antiutopik asarlarda mavjud dunyoning kelajagi haqidagi radikal g'oyalar, asosan, yozuvchining zamon va makonni qay tarzda ifodalaganiga bog'liq bo'lib, ular orqali real jamiyatdagi turli tahdid va xavflar yoritilgan. Ushbu xulosalar boshqa antiutopiya janridagi asarlarni tahlil qilish uchun metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: antiutopiya, utopiya, distopiya, adabiy janr, ogohlantiruvchi roman, tizim va shaxs, ijtimoiy adolatsizlik, zamonaviy adabiyot, yozuvchi, zamon va makon.

KIRISH

Adabiyotning inson ongiga ta'sir doirasi asrlar osha keng ko'lamli bo'lganligidan har bir millatning ziyoli qatlami, albatta, bu imkoniyatdan unumli foydalanish istagida insonlar orasidagi u yoki bu muammolarni o'quvchining eng nozik his tiyg'ularinida qo'zg'atadigan yo'sinda yetkazish uchun turli mavzudagi badiiy asarlarni yaratib kelishgan. Ammo hozirgi globallashuv jarayonida, har bir voqea jadallik kasb etayotgan zamonda insonlarga badiiy bo'yoqlar bilan ifodalangan adabiyot namunalari orqali ta'sir etish ham ancha mushkul masala. Barcha boshqa sohalar singari adabiyot ham insonning talab va istaklariga moslashib bormoqda. Ushbu maqolada yoritilgan antiutopiya janri ham aynan hozirgi kundagi muammolarga javob sifatida yuzaga kelgan adabiyotshunoslikning dolzarb turlaridan deyish mumkin. Antiutopiya adabiy janr sifatida zamonaviy dunyoning xavf-xatarlarini, shuningdek, insoniy qadriyatlar, erkinlik va individuallikning yo'qolib ketish ehtimolini namoyon etuvchi kuchli adabiy vosita hisoblanadi. Adabiyotshunos olimlar orasida bu janrning atama sifatida ta'rifi va qonun-qoidalarini to'g'risida yagona fikrga kelinmaganligi uning adabiyotda nisbatan kechroq paydo bo'lganligi bilan bog'liqdir ehtimol [Claeys, 2010], shu bilan birga, aynan bir janrga nisbatan turli davr va hududlarda farqli atamalarining qo'llanilishi janr chegarasi va terminologiyasining konkretlashuviga xalal bergan. Bu janrda asosiy urg'u insonning o'z xohishi va ijtimoiy bosim o'rtasidagi kurashiga qaratilgan bo'lib, unda shaxsiyat erkinligi, haqiqiy baxt, ehtiyoj va boshqaruv o'rtasidagi ziddiyatlar yoritiladi. Tadqiqot ishining asosiy maqsadi ham shu kunga qadar olimlar tomonidan berilgan tariflarni qiyosan o'rganib, bu janrning o'z xususiyatlarini to'laqonli ochib

L.T. Sargent's definition of antiutopian literature. This research not only elucidates the social and literary significance of antiutopia but also presents key approaches for assessing its impact on contemporary society.

The primary conclusions of the study suggest that the radical ideas about the future of the existing world in antiutopian works are predominantly dependent on the author's representation of time and space. Through these works, various threats and risks in contemporary society are illuminated. These conclusions provide a methodological foundation for analyzing other antiutopian works.

Key words: dystopia, utopia, anti-utopia, literary genre, cautionary novel, system and individual, social injustice, contemporary literature, writer, time and space.

bera oladigan tizimli ta'riflarni ishlab chiqishdan iborat. Antiutopiyaning vujudga kelishi kitobxonlar orasida utopik adabiyotlarning keng yoyilishi bilan uzviy bog'liq. Aslini olganda, utopiya ham adabiyot uchun nisbatan yangi terminlardan hisoblanadi. Utopiya janrining yuzaga kelishi T.Morning 1516-yilda yozilgan "Utopiya" asari bilan bog'liq. 1551-yilda R.Robinsonning tarjimasini bilan ingliz tiliga kirib kelganidan so'ng, turli xil tasniflar va nazariyalar – distopiya/kakotopiya (yomon joy), Fukoning geterotopiya (boshqa/ajralgan joy) va T.Moylanning tanqidiy utopiyasi kabi shakllarga ega bo'ldi. Utopiyaning ichki ziddiyatlari so'z darajasida boshlanadi: qadimgi yunoncha οὐ (yo'q) + τόπος (topos/joy) kombinatsiyasi bilan ο'xshash εὐ (yaxshi) + τόπος, bu "joy yo'q" yoki "yaxshi joy" bo'lishi mumkin [Sargent, 1994; 33]. T.Morning xayoliy shoiri Anemoliusning misralari orqali butunlay yaxshilik mavjud bo'lgan joy yo'qligi ifodalanadi: "Wherefore not Utopie, but rather rightely, My name is Eutopie: a place of felicitie" ("Utopiya deb atalmagin meni, balki, to'g'rirog'i, Mening nomim Evtopiya: baxt-saodat joyi") [More, 1910]. T.Mor ilk bor o'z asarida utopiya orqali ideal jamiyat g'oyasini ilgari suradi. Bunday jamiyatda fuqorolarning har qanday ehtiyojlarini adolat va tenglik bilan qondirish orqali mavjud muammolarga yechim beriladi va barcha uchun farovon hayotni taminlashga harakat qilinadi. Ehtiyojlar cheksizligi asosiga qurilgan dunyoda yashovchi odamlar mukammal hayotga va barcha baxtli yashovchi muqobil dunyoni yaratishga intilishgan. Boshqacha qilib aytganda, utopiya odamlar izlayotgan va topishga umid qilayotgan orzu va umidlarni ifodalaydi [Ulaş, 2022].

T.Mor esa utopiyaning o'z asarida xayoliy orol sifatida keltiradi. Mazmun jihatidan bu orol utopiya so'zining lug'aviy ma'nosiga ham asos solgan. Ingliz utopiya tadqiqotchisi L.A. Morton yashagan dunyoni "umidsizlik va umid, mojarolar va qarama-qarshiliklar, boylikning ortishi va qashshoqlikning kuchayishi, idealizm va korrupsiya, milliy davlat oldida mahalliy va xalqaro jamiyatlarining bir vaqtning o'zida tanazzulga uchrashi, bu esa burjua jamiyatining rivojlanishi uchun asos yaratdi" [Morton, 1952; 49], deya ta'riflaydi. Shubhasiz, ushbu ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar sohasidagi ulkan o'zgarishdan hamda jamiyatning o'zini anglash va qayta shakllantirishga olib kelgan yangi ijtimoiy muvozanatdan barcha guruhlar birdek foyda ko'rmadi; shunga qaramay, kapitalizm deb ataladigan mexanizmlar harakatga tushgan edi.

Ko'plab sayohatchi va bosqinchilar tomonidan 15-17-asrlarda egallanmagan yangi yerlarning ochilishi ham utopiyaning janr sifatida rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Insonlar yangi yerlarni kashf qilishi bilan yaxshiroq hayot tarziga intilish kuchayib borgan. Shu asnodan utopik adabiyot mashhur bo'la boshlagan. Aynan shu davrda T.Morning "Utopiya" ("Utopia") (1516), T.Kampanellaning "Quyosh shahri" ("The City of the Sun", 1623), F.Bekonning "Yangi Atlantida" ("New Atlantis", 1627) kabi klassik asarlari yozilgan. F.Viyerera "Utopiya tushunchasi" ("The Concept of Utopia") maqolasida utopiya atamasini paydo bo'lganidan buyon ma'nosini o'zgartirib turuvchi neologizm sifatida tariflaydi [Vieira, 2010; 3].

"Oksford inglizcha lug'ati"da "utopiya" so'ziga "tasavvur qilingan yoki taxminiy joy, tizim yoki mavjudlik holati bo'lib, unda hamma narsa mukammal,

ayniqsa ijtimoiy tuzilma, qonunlar va siyosat nuqtayi nazaridan mukammal” [Oxford English Dictionary, n.d.], deya ta’rif berilgan. Afsuski, utopiya janrining ma’no va davr chegarasi bo’yicha utopik adabiyot vakillari orasida yakdil fikr mavjud emas. Ilk bor faqat xayoliy orolga nisbatan qo’llanilgan bo’lsa ham, uni o’zi yaratilgan davr va muallif bilan chegaralash to’g’ri emas. U yaratilganidan buyon turli qo’shimcha ma’nolarni yuklab kelmoqda va insoniyat xayolidagi kun sayin o’zgarib borayotgan “ideal dunyo” bilan mos ravishda o’zgarib borishi kutilmoqda.

“Har bir adabiy asar siyosiy yoki falsafiy masalalarni ko’tarishni maqsad qilmaydi, ammo utopik fantastika siyosat, falsafa va adabiyotning birlashgan janri bo’lib, ko’pincha falsafiy taxmin, siyosiy taklif va adabiy tasavvurni o’z ichiga oladi” [UIaş, 2022]. Darhaqiqat, tasvirlanayotgan badiiy jarayonlar ta’sirida adabiy utopiyada haqiqat yo’qoladi, chunki bu janr amalga oshirilishi mumkin bo’lgan imkoniyatlarni ko’rsatish uchun siyosat va falsafani o’z ichiga oladi. Bu amalda bo’lgan tartib va hokimiyatdan farqli bo’lgan va mavjud bo’lmagan bir dunyoni tasvirlaydi. Ammo utopik asarlar haqiqatdan butunlay uzilgan ideal tartibni taqdim etmaydi. T.Patrikning aytishicha, “utopiya “bo’lishi mumkin bo’lgan kelajakni” namoyish etadi, ya’ni haqiqiy dunyodan farq qiladigan, ammo haqiqatdan to’liq uzilmagan bir olamni yaratadi” [Moylan, 1981]. Utopiya – bu mukammallikka yetgan dunyo, ideal tartibni ifodalovchi bir jamiyat sifatida tushuniladi. Ammo bu yerda, T.Patrikning fikricha, utopiyalar aslida hayotiy voqelikdan butunlay uzilmagan, balki kelajakda amalga oshirilishi mumkin bo’lgan ideal tuzumni ko’rsatadi. Ya’ni, ular nafaqat xayoliy bir olamni, balki imkonli kelajakni tasavvur etishga yordam beradi. Utopiya asarlarida yozuvchilar bir tomondan mavjud jamiyatdagi kamchiliklarni ochib berishsa, boshqa tomondan jamiyat rivoji uchun qanday o’zgarishlar kiritish mumkinligini tasavvur qilishadi. Shunday qilib, utopiyalar jamiyatni yuksaltirish yo’llarini qidirishga xizmat qiladi. T.Patrikning “bo’lishi mumkin bo’lgan kelajak” degan ifodasi ham utopik asarlarning jamiyatni ideal shaklga yetkazishga qaratilgan harakatlari bilan bog’liq. Bu kelajak esa insoniyat uchun mumkin, lekin hozirgi haqiqatdan bir necha qadam narida turadi.

TADQIQOT METODLARI

Olib borgan tadqiqot ishimiz davomida struktural tahlil, tarixiy-madaniy tahlil, tasniflash va tavsifiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Eng avvalo ushbu tadqiqotda antiutopiya, utopiya va distopiya atamalarining izohini tahlil qilish uchun qiyosiy-tarixiy tahlil metodidan foydalanilgan. “Bu metod asosida tadqiqot olib borilganda ikki yoki undan ortiq adabiy hodisalar qiyoslanadi; ilmiy-nazariy umumlashmalar chiqariladi” [Karimov, 2011; 72].

Antiutopiya janrida voqealar odatda repressiv ijtimoiy tuzumda sodir bo’ladi, shu sababli struktural tahlil yordamida bunday asarlarda zamon va makonning qahramonlar dunyoqarashiga qanday ta’sir etishini, syujet chiziqlarining rivojlanishidagi xronologik birliklarning rolini ko’rib chiqish mumkin.

Tavsifiy tahlil yordamida asarlardagi zamon va makon elementlarini umumiy tizimga solish va ular orqali yozuvchining asosiy fikr va g’oyalarini aniqlash mumkin.

Shu usul yordamida antiutopik asarlarning zamon va makon tasvirining asosiy ma'no va mazmunini tizimli o'rganish hamda ularning antiutopiya janriga xos vazifalarini aniqlash mumkin.

Antiutopik asarlardagi zamon va makon unsurlarini tasniflash ularning funksiyasini aniqlash, qahramonlar va muhitning o'zaro aloqalarini tizimlashtirish imkonini beradi. Tasniflash usuli yordamida yozuvchi yaratgan antiutopik dunyoning tuzilishi, undagi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, nazorat va boshqaruv mexanizmlarini tahlil qilish mumkin.

NATIJALAR VA MUNOZARA

XX asrda utopiya janri turli sub-janrlarga bo'linib rivojlandi. Ular orasida distopiya (salbiy-utopiya), satirik utopiya, antiutopiya, feminist utopiya va ekologik utopiya bor. Bu turli sub-janrlar kelajak haqida qarama-qarshi nazariyalarni, ba'zida esa hozirgi jamiyatdagi muammolarga tanqidiy nazar bilan qarashni o'zida mujassamlashtiradi. Distopiya va antiutopiya tushunchalarini semantik jihatdan ajratish uchun ayrim nazariyotchilar ularga alohida ta'rif berishga harakat qilishgan. Ko'pincha distopiya va antiutopiya tushunchalari sinonim sifatida ishlatilsa-da, ular orasida nozik farqlar bor. Distopiya odatda insoniyat kelajagini yomonlashtiruvchi, repressiya va erkinliklarni cheklovchi jamiyat sifatida tasvirlanadi. Antiutopiya esa utopik g'oyalar va ideallarni amaliyotda amalga oshirishga qaratilgan urinishlarning muvaffaqiyatsizligini yoki zararli natijalarini ko'rsatadi. Antiutopik harakat mustaqil janri sifatida zamonaviy davrga tegishli bo'lsa-da uning kelib chiqishi sanasida farqlar mavjud. T.Moylan o'z asarida antiutopiyaning o'z shakliga XX asr boshlarida, kapital monopoliyalashuvga yuz tutgan va zamonaviy imperialistik davlatlar ichki va tashqi kuchlarini kengaytirgan davrda kelganligini aytadi [Moylan, 2001; 51].

Antiutopiya atamasi 1952-yilda G.Negli va M.Patrik tomonidan "Utopiya sari intilib" ("The Quest for Utopia") antologiyasida birinchi marta adabiy janr nomi sifatida ishlatilgan [Mansurjonova, 2024]. Ushbu manbada "antiutopiya" atamasi utopik asarlarning qarama-qarshi tushunchasi sifatida kiritilgan va badiiy asarlarning kelajakdagi noxush ijtimoiy tizimlarini tasvirlashda ishlatiladi. Antiutopiya adabiy janr sifatida kelajakdagi jamiyatning noxush yoki turg'un tasvirini ifodalovchi, insonning erkinligi va individualligi ustidan hukmronlik qiluvchi totalitar tuzumlar haqida ogohlantiruvchi asarlardan tashkil topadi. Totalitar jamiyatdagi adabiyot ko'pincha teskari qadriyatlarni majburan joriy etadigan tizim orqali qurilgan antiutopik yo'nalishda namoyon bo'ladi [Rău, 2012; 271]. Bu janrda asosiy urg'u insonning o'z xohishi va ijtimoiy bosim o'rtasidagi kurashiga qaratilgan bo'lib, unda shaxsiyat erkinligi, haqiqiy baxt, ehtiyoj va boshqaruv o'rtasidagi ziddiyatlar yoritiladi. Antiutopiya odatda utopiya janrining qarama-qarshi janri sifatida shakllanadi va utopiyaning ideal jamiyat haqidagi tasavvurlarini parodiya qiladi, ularning ichki ziddiyatlari va amaliyotdagi cheklovlarini ochib beradi. Y.Zamyatinning "Biz" ("We"), J.Oruellning "1984" va O.Xakslining "Jasur yangi dunyo" ("Brave New World") kabi taniqli antiutopik asarlar jamiyatning ijtimoiy va siyosiy tuzilmalariga qarshi tanqidiy yondashib, inson kelajagi, texnologiyalarning nazorat vositasi sifatida ishlatilishi va

shaxsiy hayotning cheklanishi haqida chuqur fikr yuritishga chaqiradi.

Antiutopik janrda shaxs va jamiyat o'rtasidagi asosiy ziddiyat kelib chiqadi, bunda davlat yoki yuqori hokimiyat shaxs ustidan to'liq nazorat o'rnatishga intiladi va shu orqali inson huquqlari va erkinliklarini yo'q qiladi. Ushbu janrning asosiy belgilari – kuchli ijtimoiy bosim, shaxsiy erkinlikning cheklanishi, jamiyatning texnologiyaga qaramligi va manipulyatsiya vositalari orqali hukmronlik qiluvchi davlat. Antiutopiya adabiyoti zamonaviy dunyoning xavf-xatarlarini, shuningdek, insoniy qadriyatlar, erkinlik va individuallikning yo'qolib ketish ehtimolini namoyon etuvchi kuchli adabiy vosita hisoblanadi. Ba'zi adabiyotshunoslar “distopiya” va “antiutopiya” atamalarini teng ma'noda ishlatasa-da, boshqa ilmiy tadqiqotchilar ushbu janrlarni aniq farqlar asosida tavsiflashga harakat qilishadi.

“Buning asosiy sababi shuki, terminologik nomuvofiqliklar masalasi hal etilmagan, distopiya adabiyotining chegaralaridagi mavhumlik, romanning fantastik janrga yoki mustaqil janr ekanligiga doir masala to'laqonli hal qilinmagan” [Kadirova, 2023; 134]. Ular distopiya va antiutopiyaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib, ularning janriy me'yorlarini shakllantiruvchi aniq ta'riflar ishlab chiqishga harakat qilishadi. Distopiya odatda insoniyatni ogohlantirish uchun kelajakdagi xavfli jamiyat modellarini namoyon qilishga qaratilgan bo'lsa, antiutopiya utopik idealning cheklangan yoki qaltis tomonlarini ochib berishga qaratilgan. Shu sababli, bu ikki janr orasidagi nozik, ammo mazmunli tafovutlarni izohlash adabiy nazariyada tobora keng ko'lamda o'rganilmoqda. Masalan, K.Kumar o'zining “Zamonaviy davrdagi utopiya va antiutopiya” (“Utopia and Anti-utopia in Modern Times”) kitobida antiutopiya atamasini umumiy termin sifatida ishlatib, ba'zan “distopiya” va kamroq hollarda “kakotopiya” sifatida ham talqin qiladi [Kumar, 1987]. Yunoncha “dys-” prefiksi “kasal va yomon” degan ma'noni bersa, “anti-” prefiksi “qarama-qarshi va zid” degan ma'noni anglatadi. G.Kleys va L.T. Sarjantning “Utopiya o'quvchisi” (“The Utopia Reader”) kitobida esa distopiya va antiutopiya alohida janrlar sifatida ko'rib chiqilgan. Ular distopiyaning muallifi o'z davridagi jamiyatni hozirgi jamiyatdan ancha yomonroq qilib ko'rsatgan utopiya sifatida ta'riflashadi. Antiutopiya esa utopik g'oya yoki biron utopik jamiyatni tanqid qilish uchun yozilgan utopiya deb ta'riflanadi [Claeys & Sargent, 1999].

T.Moylan, J.Xantington va R.Bakkolini kabi tadqiqotchilar distopiya va antiutopiya o'rtasidagi nozik, ammo muhim farqlarni tushuntirishadi [Cavalcanti, 2003]. Bu farqlar bu janrlardagi asarlarning maqsadi va tasvirlash uslubi bilan bog'liq.

Distopik asarlar odatda kelajak haqida ogohlantirish berishga intiladi. Ular jamiyatda mavjud muammolar va tahlikalarni kuchaytirib, ularning oxiri qanday fojialarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Distopik asarlarda kuchli markazlashgan boshqaruv, shaxsiy erkinliklarning cheklanishi va ijtimoiy befarqlik ko'rsatiladi, bu esa insoniyatni o'zini anglashga undaydi. Distopiya o'quvchilarni mavjud tizimni tanqidiy nuqtayi nazardan o'rganishga va unga qarshi chiqishga yo'naltiradi. Bunday asarlar ogohlantirish vazifasini bajaradi, kelajakda bunday fojiaiy holatlardan qochish zarurligini anglatadi.

Antiutopiya esa o'z tabiatiga ko'ra utopik g'oyalarning o'zini tahlil va tanqid

qiladi. U utopiya tarafdorlari tomonidan taklif etilgan ideal jamiyat va turmush tarzidagi xavflarni yoki cheklovlarni ochib beradi. Antiutopik asarlar ko‘pincha utopik g‘oyalarni masxara qilgan holda idealizmning cheklovlarini, inson erkinligini cheklashga moyilligini va ba’zi holatlarda esa ideal jamiyatga intilishning natijasi bo‘lib chiqqan paradoksal muammolarni tasvirlaydi. Bu orqali antiutopiya mavjud jamiyatdagi ortiqcha idealizmni, insoniyatning barcha muammolarini bir yo‘la hal qilish istagini tanqid qiladi.

J.Xantington utopiya va distopiya o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni tahlil qilar ekan, antiutopiyani ulardan alohida tushuntiradi [Huntington, 1982]. Utopiya va distopiya bir-biriga qarama-qarshi ko‘rinsa-da, aslida bir-birini to‘ldiruvchi maqsadga xizmat qiladi. Ularning har ikkalasi ham yaxlit bir g‘oyani amalga oshirishga intiladi: utopiya ideal jamiyatni shakllantirish istagini ifoda etadi, distopiya esa kelajakdagi salbiy ssenariylarni tasvirlab, odamlarni ogohlantiradi. Utopiya o‘quvchida umid uyg‘otib, yaxshiroq jamiyat sari ilhomlantirsa, distopiya insoniyatni jamiyatdagi muammolarni anglab yetishga, ularni tuzatishga undaydi. Ikkisi ham insoniyat uchun yaxshiroq hayotni yaratishga intilishning turli shakllaridir.

Antiutopiya esa boshqa nuqtayi nazarga ega. J.Xantingtonning fikricha, antiutopiya utopiya va distopiyaga qarama-qarshi yondashuvni tanlaydi; u bunday soddalashtirilgan idealistik yoki fojiaiy qarashlarga shubha bilan qaraydi. Antiutopik asarlar utopiya va distopiya tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni tanqid qiladi va ularni chuqur tahlil orqali qayta ko‘rib chiqadi. Bu asarlar insoniyatning mukammallikka erishish yoki yomonlikdan qochish yo‘lida yaratadigan cheklovlari va murakkabliklarini ochib beradi, ulardagi ziddiyatlarni ko‘rsatib, o‘quvchini idealizmga ko‘r-ko‘rona ergashishdan ogohlantiradi. Shunday qilib, antiutopiya utopiya va distopiyaga alternativani taklif qilib, insoniyatning idealga yetishdagi chegaralari va xavflarini ochib berishga intiladi.

J.Xantington antiutopiyani “cheksiz tekshiruv va shubha shakli” sifatida tasvirlaydi, ya’ni u utopiyaning asosiy tamoyillarini doimiy savol ostiga qo‘yadi. Antiutopiya insoniyat tarixidagi halokatli voqealardan saboq olib, utopik ideallarga ishonchsizlik bilan qaraydi va ularni amalga oshmaydigan orzu-havas sifatida ko‘radi. Shu boisdan, antiutopiya distopiyadan ham farq qiladi, chunki u o‘quvchiga yangi ijtimoiy tartibni taklif qilmaydi. Shunday qilib, antiutopiya insoniyat boshdan kechirgan fojialar tufayli utopiyaning qadriyatlarini e’tiborga olmaydi va uni amalga oshmaydigan fantastika sifatida ko‘radi. Distopiya va antiutopiya o‘rtasida pessimizm jihatidan o‘xshashlik mavjud bo‘lsa-da, antiutopiya distopiyaga ham qarshi chiqadi, chunki u yangi ijtimoiy tartibni taklif qilmaydi.

XX asrda antiutopiya janrining ommalashishi tasodifiy emas. Ushbu davrda sodir bo‘lgan voqealar inson psixologiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi va antiutopik asarlarning ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Aholi sonining o‘sishi va doimiy urushlar mavjud dunyoning kamchiliklarini rad etish va jamiyatni mukammal qilish imkoniyatini kamaytiradi. Shu sababdan, antiutopik hikoyalar ko‘pincha utopiyaning va’dalari va qoidalarini inkor etadi.

R.Jakobi o‘zining *“Rasmiy ravishda mukammal emas: Antiutopik davr uchun*

utopik fikr” (“Picture Imperfect: Utopian Thought for an Anti-utopian Age”) nomli asarida utopik g’oyaning mashhurliqi pasayishi sabablarini uchta asosiy omil orqali izohlaydi [Jacoby, 2005]. Birinchidan, u kommunistik davlatlarning yemirilishini tilga olib, real hayotdagi muvaffaqiyatsizliklar utopik g’oyalar va davlat qurilishi o’rtasidagi ishonchni zaiflashtirganini ko’rsatadi. Bu holat utopik tushunchalarga ishonchning susayishi va ularning amaliyotda noto’g’ri yo’nalishda ketishidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, R.Jakobi utopistlar va totalitarlar orasidagi chegara tushunchasining yo’qolganini ta’kidlaydi. Odamlar utopik g’oyalar va totalitar boshqaruv usullari o’rtasidagi farqni ko’rmaydigan darajaga kelishgan; shu bilan utopiya va repressiya o’rtasidagi farqlar yo’qoladi va bu utopiyaga bo’lgan umidni yanada kamaytiradi.

Uchinchidan, R.Jakobi “G’arb tasavvuri”ning qisqa vaqtda zaiflashishini muhokama qiladi. U G’arb madaniyatida yaratish va yangi g’oyalar ishlab chiqish, shuningdek, jamiyatni rivojlantirish imkoniyatlarining tobora kamayib borayotganiga e’tibor qaratadi. Avval yaratib kelgan utopik va idealistik loyihalar endi o’zining ilgari kuchli bo’lgan pozitsiyasini yo’qotib, o’rniga skeptik va ko’proq distopik dunyoqarashlar egallamoqda. Bu jarayon G’arbda yangi imkoniyatlar va optimistik g’oyalar ishlab chiqishning o’rniga tanqidiy va pessimistik nuqtayi nazarlarning ustun kelayotganini ko’rsatadi.

K.S. Ferns “Utopiyani tasvirlash” (“Narrating Utopia”) asarida utopik va distopik adabiyotlarning jamiyatni qanday tasvirlashi haqida muhim mulohazalarni keltiradi. K.S. Fernsning fikriga ko’ra, “utopik adabiyotda muallif hozirgi jamiyat va ideal jamiyat o’rtasidagi farqni ko’rsatishga intiladi, lekin shu bilan birga, bu ikki jamiyat o’rtasidagi bog’lanishni qisman xiralashtiradi” [Ferns, 1999]. Bunday yondashuv, utopik jamiyatda sodir bo’ladigan voqealar va muammolar real jamiyatdan uzoqroqdek ko’rinishini ta’minlaydi. Utopik adabiyotda ko’pincha mukammallikka yetishish uchun mavjud jamiyatdagi ko’plab kamchiliklarni yo’q qilish yoki ularni o’zgartirishga ishora qilinadi, lekin buni real hayot bilan bog’lashdan ko’ra, tasavvurga asoslangan bir qiyofa yaratiladi.

Biroq distopik yozuvchilar bunga qarama-qarshi yo’nalishni tanlaydilar. K.S. Ferns shunday deydi: “Distopiya yozuvchisi qorong’i va dahshatli kelajakni real jamiyatning mantiqiy davom etishi sifatida tasvirlaydi va bu kelajak sodir bo’lmasligi uchun hozirda qanday choralar ko’rish kerakligi haqida ogohlantiradi. Ya’ni, distopik asarlar mavjud tizimning oqibatlarini ko’rsatib, real jamiyatda, agar mavjud tartib davom etsa, bu qorong’i kelajakning muqarrar bo’lishi mumkinligini o’quvchiga yetkazadi”. K.S. Fernsning ushbu fikriga asoslanib aytish mumkinki, distopiya yozuvchilari o’z asarlari orqali hozirgi zamondagi xavf-xatarlarni ko’rsatib, odamlarni o’z harakatlariga, tizimning adolatli yoki adolatsizligiga chuqurroq qarashga undaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va texnologik o’zgarishlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarni tasvirlab, insonlarga “agar hech narsa o’zgarmasa” degan ehtimoldan chiqib yozadilar. Shu tarzda distopik asarlar real hayotni aks ettiruvchi bir oyna rolini bajaradi va o’quvchiga xuddi o’z jamiyati kelajagini ko’rgandek ta’sir o’tkazadi. Antiutopiya janri dastlab kelajakda

yoki tasavvur qilingan dunyoda totalitar davlatlarning fuqarolarga qarshi qo'llagan cheklov va nazoratlarini tasvirlash uchun ishlatilgan. Bu turdagi asarlar odatda qattiq nazorat ostidagi, erkinlik va shaxsiy hayotdan mahrum qilingan, qo'rqinchli va ziddiyatlarga to'la jamiyatlarning qorong'i kelajagini tasvirlaydi. Antiutopik adabiyot orqali mualliflar zamonaviy jamiyatdagi xavflarni ko'rsatib, odamlarni kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan tahlikalar haqida ogohlantirishni maqsad qilishadi.

XIX asrning oxirlarida va XX asr boshlarida antiutopik adabiyotning ommalashishi ijtimoiy, ilmiy va falsafiy o'zgarishlarga to'g'ri keldi. Ayniqsa, bu jarayon ilm-fan va sotsializm kabi g'oyalarga bo'lgan ishonch pasaya boshlagani bilan bog'liq. Bunga sabab shuki, bir tomondan, bu g'oyalarning noto'g'ri yo'nalishlarda qo'llanish ehtimolining borligi haqidagi xavotirlar bo'lsa, boshqa tomondan, bunday g'oyalar kutilganidek faqat yaxshilik emas, balki xatar ham keltirib chiqarishi mumkin edi. "Janrning an'anaviy qiyofasining barqarorlashuvi XX asrga, ya'ni antiutopiyaga xos klassik asarlar (masalan, Y.Zamyatin, J.Ourell, O.Xaksli va boshqalar) paydo bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda janrning normativ konstantalari shakllanadi" – deb yozadi V.Kostenkova o'z tadqiqotlari natijasida [Kostenkova, 2019; 11].

Bunday sharoitda antiutopik adabiyotlar avtoritarizm, texnologiyaning suiiste'mol qilinishi, shaxsiy erkinliklarni yo'qotish, insonning shaxsiy hayoti va ongiga davlatning cheksiz aralashuvi kabi muammolarga e'tibor qaratdi. Antiutopik asarlar totalitar nazoratdan tashqari, insoniyatning kuchayib borayotgan texnologiyalarga qaramligi va ularning noto'g'ri yo'nalishda rivojlanishi xavfini ham o'rganishga kirishdi.

Antiutopik janr nafaqat ilm-fan va davlat nazorati haqidagi tashvishlarni aks ettiradi, balki u insoniyatning murakkab tabiatini ham ko'rsatadi. Shunday qilib, antiutopik asarlar davlat nazorati, iqtisodiy va ijtimoiy strukturalar bilan bog'liq murakkab masalalarni yorqinroq ochib beradi va insoniyat o'z kelajagi haqida chuqur o'ylashi kerakligini eslatib turadi.

I.F. Borisova, M.N. Nizamova va B.S. Ermatovning "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati" ("Словарь литературоведческих терминов")da keltirilgan ta'rifga ko'ra, "antiutopiya – bu insonlarning asta-sekin yoki falokatli darajada begonalashishi, ularning individual xususiyatlarining yo'qolib, tizimning bir qismi, qo'shimchasiga aylanishini tasvirlovchi badiiy janr. Utopiyadan farqli o'laroq, antiutopiya – kelajak, orzularni inkor qiluvchi janrdir" [Borisova i dr., 2002; 138].

Antiutopiya janri, insoniyatning boshqaruv tizimi va texnologiyalarga ortiqcha bog'lanishi, axloqiy va ruhiy qadriyatlarining so'nib borishi bilan bog'liq masalalarni o'rta tashlaydi. Ushbu janr, aslini olganda, insonning individual xususiyatlari, o'zligini yo'qotishi orqali uni shaxsiyatidan ajratish va uni tizimning oddiy, mexanik bir qismiga aylantirish jarayonini tasvirlaydi. Bu jarayonning asta-sekin sodir bo'lishi yoki kutilmagan falokatlar natijasida ro'y berishi mumkinki, bular antiutopik asarlarda ijtimoiy va siyosiy hayot orqali namoyon qilinadi. Ushbu janrda insonning tabiiy va erkin hayotdan begonalashishi, o'z haq-huquqlari, orzu-umidlari va shaxsiy xususiyatlarini yo'qotib, qat'iy nazorat va yo'riq asosidagi sun'iy, muvozanatsiz

tizimga bo'ysunishi ko'rsatiladi.

Adabiyotshunoslikda antiutopiya jamiyatning ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlariga, boshqaruv tizimlarining inson ongi va hayotiga salbiy ta'siriga e'tibor qaratadi. Bu janrda yozuvchilar nafaqat totalitar jamiyatni, balki texnologik va iqtisodiy rivojlanish nomi ostida inson erkinligini cheklovchi tuzumlarni ham tasvirlaydi. Bu kabi asarlar insoniyat kelajagi haqida o'ylashga undab, uni tizimga to'liq bo'ysunmaslikka chaqiradi.

Ingliz taniqli adabiyotshunosi L.T. Sarjent esa antiutopiyaning shunday ta'riflaydi: "Antiutopiya yoki negativ utopiya – muallifning o'quvchiga yashab turgan jamiyatga nisbatan ancha yomonroq bo'lib tuyulishi kerak bo'lgan, aniq tasvirlangan va ko'pincha makon va zamonda joylashgan mavjud bo'lmagan jamiyatdir" [Sargent, 1994; 9]. XXI asr adabiyotida bunday asarlar hali ham yaratilmoqda, bu esa ushbu mavzuda turli tillarda ko'plab ilmiy ishlarning mavjudligini tushuntiradi.

Antiutopiyalar zamon va makon chegaralarini aniq belgilaydi, lekin ular haqiqiy joy yoki vaqtga mos kelmaydi. L.T. Sarjentning ta'kidlashicha, antiutopiya aynan o'quvchining real dunyosidan "yomonroq" bo'lib ko'rinadigan nuqtayi nazar orqali tasvirlanishi kerak, bu esa uni ko'proq ogohlantiruvchi va fikr uyg'otuvchi janrga aylantiradi. Yozuvchi tomonidan "tuyulishi kerak bo'lgan" degan iboraning qo'llanilishi esa asar muallifining qasddan noxush manzarani yaratishga intilishidan dalolat beradi, ya'ni u o'z asari orqali o'quvchini ijtimoiy muammolar va ehtimoliy oqibatlariga jiddiyroq qarashga undaydi.

XXI asrda antiutopik asarlarning hanuz ommabop bo'lishi ushbu janrning zamonaviy muammolar va global tahdidlarga javob bera olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Masalan, texnologiyaning o'sishi, ekologik muammolar, ijtimoiy adolatsizlik, totalitar boshqaruv usullarining yangi shakllari kabi mavzular antiutopik asarlarda tobora keng o'rin olmoqda. Bunday asarlar faqatgina o'z davrining in'ikosini berish bilan kifoyalanmay, o'quvchilarni insoniyat istiqboli va ehtimoliy xavf-xatarlar haqida chuqurroq fikr yuritishga chorlaydi. "Insonni deyarli doimiy ravishda kelajakda u va u yashayotgan jamiyat bilan nima sodir bo'lishi qiziqtirib kelgan" [Dydrov, 2010]. Kelajakni o'rganish orqali inson nafaqat o'zining imkoniyatlarini va chegaralarini, balki ijtimoiy tizimlar, adolat, ozodlik va tenglik kabi masalalarni ham chuqurroq tahlil qilishga harakat qiladi. Bu esa antiutopiyaning o'zining ogohlantiruvchi, prognozlovchi funksiyasi bilan XXI asr adabiyotida ham dolzarb bo'lib qolishini taminlaydi.

R.Ahmedov esa o'z maqolalarining birida shunday deydi: "Antiutopiya va ogohlantiruvchi romanlar o'rtasidagi farqlarni ajratish qiyin, chunki antiutopiya janri rivojlanishining ilk bosqichlaridayoq insoniyatga zo'ravonlik xavfi haqida ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan. Shu sababli, ushbu ikki janrni qarama-qarshi qo'yish mantiqan asoslanmagan, chunki antiutopiya aslida insoniyatga jiddiy xavf-xatarlar haqida xabar berish uchun yaratilgan janr sanaladi" [Akhmedov, 2016; 132].

Aslini olganda, antiutopiyaning o'zi ogohlantiruvchi vazifani bajaradigan asar hisoblanadi. Misol uchun, J.Oruellning "1984" asari totalitarizm xavfini ko'rsatib, o'quvchini ogohlantirsa, O.Xakslining "Ajoyib yangi dunyo" romanida haddan

tashqari texnologik va g'oyaviy nazorat haqida ogohlantirish mavjud. Shu tariqa bu asarlar nafaqat fantastik yoki adabiy obrazlar yaratadi, balki jamiyatga real tahdidlar haqida ogohlantirishni maqsad qilgan.

Umuman olganda, "antiutopiya janrining asosiy xususiyati prognozlash, ya'ni kelajakni tasavvur qilishdir" [Akhmedov, 2016; 132]. Dastavval, bashorat qilish asosan ijtimoiy tizimni tasvirlashga qaratilgan bo'lsa, hozirda adiblarni nafaqat ijtimoiy, balki ruhiy bashoratlar ham qiziqtiradi: inson bilan nima sodir bo'lmoqda va kelajakda uning ichki dunyosi qanday o'zgarishlarga uchraydi, yangi zo'ravonlik natijasida qanday ruhiy holatga keladi, ma'naviy qadriyatlar va madaniyatning bugungi va kelajakdagi taqdiri qanday bo'ladi. Shu sababli, antiutopiyadagi inson va tizim o'rtasidagi an'anaviy ziddiyat zamonaviy asarlarda ko'proq ruhiy-psixologik sohaga ko'chiriladi. Erkinlik va zo'ravonlik o'rtasidagi kurash antiutopiya bosh qahramonining qalbida kechadi va yozuvchilar o'z bashoratlarini aynan shu ichki kurash natijasiga bog'laydi.

R.Ahmedovning fikriga ko'ra, "zamonaviy antiutopik asarlarda inson va tizim o'rtasidagi an'anaviy to'qnashuv, ya'ni bosh qahramonning jamiyat yoki hukumat bilan kurashi, endilikda ichki psixologik jarayonlar bilan bog'lanmoqda" [Akhmedov, 2016; 133]. Bu esa yozuvchilar ilgari ko'proq tashqi muammolarga e'tibor qaratgan bo'lsa, bugungi kunda ular insonning ichki dunyosiga, uning ruhiy va psixologik kurashiga chuqurroq kirib borishayotganliklarini anglatadi. Bu to'qnashuv endi shunchaki tizim bilan kurash emas, balki bosh qahramonning o'ziga xos ruhiy o'sishi va ichki erkinlikni saqlab qolish uchun olib borayotgan ichki kurashini ifodalaydi. Yangi zamonaviy antiutopiyalarda bosh qahramonning qalbida ro'y beradigan ruhiy jarayonlar va ichki kurashlar asosiy voqealarning markaziga aylanadi. Yozuvchilar bu kurashning qanday yakunlanishi orqali o'z asarlaridagi xabar va bashoratlarini ifoda etadi.

Bu mavzu borasida tadqiqot olib borgan olimlarning aksariyati utopiya va antiutopiya o'rtasidagi aloqani ta'kidlaydilar. Masalan, D.V. Sisk "Zamonaviy distopiyalarda tilning o'zgarishi" ("Transformations of Language in Modern Dystopias") asarida antiutopik asarlarni "utopiyaning qarama-qarshi vorisi" deb ataydi. Uning fikricha, "antiutopiya insoniyatning idealga erishish istagini pessimist tarzda aks ettirib, zamonaviy ijtimoiy tendensiyalarni zulm va qo'rqinchli jamiyatlarga olib boradi" [Sisk, 1997; 2]. Ko'plab olimlar distopiya tushunchasining ta'rifi va uning antiutopiya atamasi bilan bog'liqligi borasida yagona fikrga kelisholmaydilar, lekin barchasi distopiya janri utopiya bilan doimo bog'liq ekaniga qo'shilishadi. Masalan, L.Devisning fikricha, "antiutopiyaning qo'pol o'yinqaroqligi uni o'ziga xos utopiyaga aylantirishi mumkin" [Davies, 1999; 205]. K.Buker esa bu fikrni kengaytiradi va "utopik va antiutopik qarashlar har doim ham bir-biriga qarama-qarshi emas"ligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, "bir kishi uchun utopiya hisoblangan narsa boshqasi uchun antiutopiya bo'lishi mumkin. Shuningdek, utopik ideal jamiyat haqidagi tasavvurlar ko'pincha mavjud tuzumning mukammal emasligini tanqid qilishni bildiradi. Antiutopiyalar yomon utopiyalarning xavf-xatariga e'tibor qaratgan holda yaxshi utopiyalarning mavjud bo'lish ehtimolini rad etmaydi. Utopik va antiutopik

qarashlar bir-birini to'ldiruvchi va aslida bitta loyihaning turli qirralari bo'lishi mumkin" [Booker, 1994;15].

Adabiyotshunos N.Fray "Adabiy utopiyalar turlari" ("Varieties of Literary Utopias") maqolasida antiutopiyani "utopik hajv yoki parodiya" [Frye, 1965; 28] deb ataydi. G.Morson esa, "Janr chegaralari" ("The Boundaries of Genre") asarida, antiutopiyalarni "anti-janr" [Morson, 1981; 15] deb ta'riflaydi. Y.Veber "20-asr antiutopiyasi" maqolasida utopiya tushunchasining o'zgarishini muhokama qiladi. Unga ko'ra, "ilgari utopiyalar uzoq va noma'lum joylarda mavjud bo'lgan xayoliy tushunchalar edi, ammo endi ular amalga oshishi mumkin bo'lgan yaqin reallikka aylangan. Utopiyalarning amalga oshish imkoniyati ortgani sayin, ularni real xavf sifatida qabul qilish tendensiyasi kuchaygan. Shu sababli, antiutopiyalar ideal jamiyat tushunchalarini shubha ostiga qo'yib, ularni tanqid ostiga ola boshlagan" [Weber, 1971; 81]. Ular zamonaviy harakatlar bilan parallel ravishda jamiyat va ilmiy taraqqiyotdagi asosiy tushunchalarga tanqidiy qarashlar bildirib, insonning olamdagi o'rni va vazifasiga yangicha talqinlar taklif etadilar.

Antiutopiyaning janr chegaralari xususida izlanish olib borgan o'zbek tadqiqotchilaridan biri V.Po'latova antiutopiya chegaralari muammosini hal qilishning ilmiy yondashuvlarini tor (mikrodaraja) va keng (makrodaraja)ga ajratadi. Tor darajadagi yondashuvda antiutopiya uch xil shaklda ko'rib chiqiladi:

Mustaqil janr sifatida. Bu qarashda antiutopiya boshqa janrlardan alohida, o'ziga xos janr hisoblanadi. U o'z genezisi, paydo bo'lish tarixi va barqaror janr belgilariga ega bo'lib, o'ziga xos janr sifatida mustahkam o'rnatilgan.

Utopiya yoki ilmiy fantastikaning subjanri sifatida. Bu yondashuvda antiutopiya utopiya yoki ilmiy fantastikaga tegishli subjanr sifatida qaraladi. Antiutopik asarlar, bu nuqtayi nazardan, utopiyaga qarshi qo'yiladigan va uni tanqid qiluvchi shaklda tasvirlanadi, shuningdek, ilmiy fantastika janriga tegishli jihatlarni ham o'zida mujassam etadi.

Janr toifasiga kiritmaslik. Ba'zi tahlillarda antiutopiya alohida janr sifatida emas, balki turli janrlarda mavjud bo'lgan mavzular majmuasi sifatida qaraladi, ya'ni u janrga xos xususiyat emas, balki mavzuga oid unsurlar to'plamidir.

V.I. Pulatova esa "antiutopiyani mustaqil, o'ziga xos janr sifatida ko'rishni qo'llab-quvvatlaydi; bu yondashuv janrning mustaqil ravishda shakllanganligini va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi" [Pulatova, 2024;13].

XULOSA

Antiutopik janr, odatda, jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni, ularning inson hayoti va ruhiyatiga ta'sirini keskin va ko'pincha ekstremal shaklda aks ettiradi. Ushbu janrdagi asarlar jamiyatdagi totalitarizm, siyosiy va ijtimoiy cheklovlar, shaxsiy erkinlikning kamayishi hamda hokimiyatning haddan tashqari nazorati kabi mavzularga alohida e'tibor qaratadi. Antiutopiya janri asosan sotsiologik va falsafiy yondashuvlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mualliflar bu janr orqali o'z davrlarining dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalariga oid muammolarni yoritib, ularga tanqidiy qarashni targ'ib qiladilar.

Antiutopik asarlarda zamon va makon kompozitsiyasi muhim o‘rin tutadi; ular ko‘pincha qorong‘i, sovuq, hattoki nohaq jamiyat qurilishini tasvirlaydi. Bu janr vakillari, jumladan, J.Oruellning “1984” yoki O.Xakslining “*Jasur yangi dunyo*” asarlari faqat nazorat va qo‘rqitishga asoslangan jamiyatda insoniyatning boshiga tushadigan qiyinchiliklarni aks ettiradi. Antiutopik asarlar, shu jumladan, o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotiga tanqidiy yondashadi va kelajak jamiyatlari haqida ogohlantirish xususiyatiga ega. Mazkur janr odatda inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatish, adolat va inson qadr-qimmatining yo‘qolishi orqali insoniyatni mavjud muammolar haqida o‘ylashga undaydi. Antiutopik asarlar, shuningdek, real hayotdagi voqealarga o‘xshash tasviriy vositalar orqali jamiyatning o‘zgarishi zarurligini taklif etadi. Bu janrning ahamiyati shundaki, u kelajak jamiyatni salbiy yondashuv bilan emas, balki ijtimoiy muammolarni ko‘rsatish orqali ularni bartaraf etish yo‘llarini izlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akhmedov, R. (2016). Zhanr antiutopii v sovremennoy literature. *Zvezda Vostoka*, 6, 132–134.
2. Booker, M.K. (1994). *The dystopian impulse in modern literature*. London: Bloomsbury Academic.
3. Borisova, I.F., Nizamova, M.N., & Ermatov, B.S. (2002). *Slovar’ literaturovedcheskikh terminov*. Tashkent: Natsional’nyy universitet Uzbekistana.
4. Davies, L. (1999). At play in the fields of our ford: Utopian dystopianism in Atwood, Huxley, and Zamyatin. In G.Slusser, P.K. Alkon, & R.Gaillard (Eds.), *Transformations of Utopia: Changing Views of the Perfect Society* (pp. 205–214). New York: AMS Press.
5. Dydrov, A.A. (2010). Utopiya i antiutopiya kak differentsirovannyye formy otnosheniy k modusu budushchego. *Vestnik Buryatskogo gosudarstvennogo universiteta*, 14, 38–41.
6. Ferns, C.S. (1999). *Narrating utopia: Ideology, gender, form in utopian literature*. Liverpool: Liverpool University Press.
7. Frye, N. (1965). *Varieties of literary utopias*. In F.E. Manuel (Ed.), *Utopias and Utopian Thought* (pp. 25–49). Boston: Houghton Mifflin.
8. Huntington, J. (1982). Logique utopique et anti-utopique; H.G. Wells et sa descendance. *Science Fiction Studies*, 9(2), 122–146.
9. Jacoby, R. (2005). *Picture imperfect: Utopian thought for an anti-utopian age*. Columbia: Columbia University Press.
10. Kadirova, D. (2023). Feminist distopik romanlarning gender xususiyatlari. *Filologiya masalalari*, 4(47), 134–147.
11. Karimov, B. (2011). *Adabiyotshunoslik metodologiyasi*. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
12. Cavalcanti, I. (2003). The writing of utopia and the feminist critical dystopia. In T.Moylan & R.Baccolini (Eds.), *Dark Horizons* (pp. 1–21). New York: Routledge.
13. Claeyes, G., & Sargent, L.T. (1999). *The utopia reader*. Manhattan: New York University Press.
14. Claeyes, G. (2010). The origins of dystopia: Wells, Huxley and Orwell. In G.Claeyes (Ed.), *The Cambridge Companion to Utopian Literature* (pp. 107–131). Cambridge: Cambridge University Press.
15. Kostenkova, V.V. (2019). Antiutopiya nachala XXI veka v dinamike zhanrovykh transformatsiy. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Krasnodar: Kubanskiy gosudarstvennyy universitet.
16. Kumar, K. (1987). *Utopia and anti-utopia in modern times*. UK: Blackwell.
17. Mansurjonova, G.M. (2024). Adabiyotda antiutopiya janrining paydo bo‘lishi va uning

- o'ziga xos xususiyatlari. *Luchshiye intellektual'nyye issledovaniya*, 7(2), 20–24.
18. More, T. (1910). *Utopia with the dialogue of comfort*. London: J.M. Dent & Sons Ltd.
 19. Morson, G.S. (1981). *The boundaries of the genre: Dostoevsky's diary of a writer and the traditions of literary utopia*. Texas: University of Texas Press.
 20. Morton, A.L. (1952). *The English utopia*. London: Lawrence and Wishart.
 21. Moylan, T. (2001). Look into the dark: On dystopia and the novum. In P.Parrinder (Ed.), *Learning from Other Worlds: Estrangement, Cognition and the Politics of Science Fiction and Utopia* (pp. 51–71). Durham: Duke University Press.
 22. Moylan, T.P. (1981). Figures of hope: The critical utopia of the 1970s. The revival, destruction, and transformation of utopian writing in the United States: A study of the ideology, structure, and historical context of representative texts. *PhD thes.* Milwaukee: The University of Wisconsin.
 23. Oxford English Dictionary. (n.d.). Utopia. In *Oed.com*. https://www.oed.com/dictionary/utopia_n?tab=meaning_and_use#16046005.
 24. Pulatova, V.I. (2024). Zamonaviy Britaniya adabiyotida antiutopiya janri tipologiyasi. *Filol. fan. fals. dok. diss. avtoref.* Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti.
 25. Rău (Marcu), L.S. (2012). The totalitarian ideological discourse and the literature of the captive mind. *Procedia, Social and Behavioral Sciences*, 63, 271–275. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.10.038>.
 26. Sargent, L.T. (1994). The three faces of utopianism revisited. *Utopian Studies*, 5(1), 1–37.
 27. Sisk, D.W. (1997). *Transformations of language in modern dystopias*. London: Bloomsbury Publishing.
 28. Ulaş, I. (2022). Visions of nightmare: An analysis of dystopian fiction in contemporary English and Turkish novels. *MA thes.* Ankara: İhsan Doğramacı Bilkent University.
 29. Weber, E. (1971). The anti-utopia of the twentieth century. In G.Kateb (Ed.), *Utopia: The Potential and Prospect of the Human Condition* (pp. 1–9). New York: Routledge.
 30. Vieira, F. (2010). The concept of utopia. In G.Claeys (Ed.), *The Cambridge Companion to Utopian Literature* (pp. 3–27). Cambridge: Cambridge University Press.

REFERENCES

1. Akhmedov, R. (2016). The genre of dystopia in modern literature. *Star of the East*, 6, 132–134.
2. Booker, M.K. (1994). *The dystopian impulse in modern literature*. London: Bloomsbury Academic.
3. Borisova, I.F., Nizamova, M.N., & Ermatov, B.S. (2002). *Dictionary of literary terms*. Tashkent: National University of Uzbekistan.
4. Cavalcanti, I. (2003). The writing of utopia and the feminist critical dystopia. In T.Moylan & R.Baccolini (Eds.), *Dark Horizons* (pp. 1–21). New York: Routledge.
5. Claeys, G., & Sargent, L.T. (1999). *The utopia reader*. Manhattan: New York University Press.
6. Claeys, G. (2010). The origins of dystopia: Wells, Huxley and Orwell. In G.Claeys (Ed.), *The Cambridge Companion to Utopian Literature* (pp. 107–131). Cambridge: Cambridge University Press.
7. Davies, L. (1999). At play in the fields of our ford: Utopian dystopianism in Atwood, Huxley, and Zamyatin. In G.Slusser, P.K. Alkon, & R.Gaillard (Eds.), *Transformations of Utopia: Changing Views of the Perfect Society* (pp. 205–214). New York: AMS Press.
8. Dydrov, A.A. (2010). Utopia and dystopia as specific forms of attitude to the mode of the future. *Bulletin of the Buryat State University*, 14, 38–41.
9. Ferns, C.S. (1999). *Narrating utopia: Ideology, gender, form in utopian literature*. Liverpool: Liverpool University Press.
10. Frye, N. (1965). *Varieties of literary utopias*. In F.E. Manuel (Ed.), *Utopias and Utopian*

- Thought* (pp. 25–49). Boston: Houghton Mifflin.
11. Huntington, J. (1982). Utopian and anti-utopian logic: H.G. Wells and his successors. *Science Fiction Studies*, 9(2), 122–146.
 12. Jacoby, R. (2005). *Picture imperfect: Utopian thought for an anti-utopian age*. Columbia: Columbia University Press.
 13. Kadirova, D. (2023). The gender features of feminist dystopian novels. *Philology Matters*, 4(47), 134–147.
 14. Karimov, B. (2011). *Methodology of literary studies*. Tashkent: Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
 15. Kostenkova, V.V. (2019). Dystopia of the early 21st century in the dynamics of genre transformations. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Krasnodar: Kuban State University.
 16. Kumar, K. (1987). *Utopia and anti-utopia in modern times*. UK: Blackwell.
 17. Mansurjonova, G.M. (2024). The emergence of the dystopian genre in literature and its specific features. *Best Intellectual Research*, 7(2), 20–24.
 18. More, T. (1910). *Utopia with the dialogue of comfort*. London: J.M. Dent & Sons Ltd.
 19. Morson, G.S. (1981). *The boundaries of the genre: Dostoevsky's diary of a writer and the traditions of literary utopia*. Texas: University of Texas Press.
 20. Morton, A.L. (1952). *The English utopia*. London: Lawrence and Wishart.
 21. Moylan, T. (2001). Look into the dark: On dystopia and the novum. In P.Parrinder (Ed.), *Learning from Other Worlds: Estrangement, Cognition and the Politics of Science Fiction and Utopia* (pp. 51–71). Durham: Duke University Press.
 22. Moylan, T.P. (1981). Figures of hope: The critical utopia of the 1970s. The revival, destruction, and transformation of utopian writing in the United States: A study of the ideology, structure, and historical context of representative texts. *PhD thes.* Milwaukee: The University of Wisconsin.
 23. Oxford English Dictionary. (n.d.). Utopia. In *Oed.com*. https://www.oed.com/dictionary/utopia_n?tab=meaning_and_use#16046005.
 24. Pulatova, V.I. (2024). Typology of dystopian genre in modern British literature. *PhD thes. philol. scien.* Tashkent: National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
 25. Rău (Marcu), L.S. (2012). The totalitarian ideological discourse and the literature of the captive mind. *Procedia, Social and Behavioral Sciences*, 63, 271–275. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.10.038>.
 26. Sargent, L.T. (1994). The three faces of utopianism revisited. *Utopian Studies*, 5(1), 1–37.
 27. Sisk, D.W. (1997). *Transformations of language in modern dystopias*. London: Bloomsbury Publishing.
 28. UIaş, I. (2022). Visions of nightmare: An analysis of dystopian fiction in contemporary English and Turkish novels. *MA thes.* Ankara: İhsan Doğramacı Bilkent University.
 29. Vieira, F. (2010). The concept of utopia. In G.Claeys (Ed.), *The Cambridge Companion to Utopian Literature* (pp. 3–27). Cambridge: Cambridge University Press.
 30. Weber, E. (1971). The anti-utopia of the twentieth century. In G.Kateb (Ed.), *Utopia: The Potential and Prospect of the Human Condition* (pp. 1–9). New York: Routledge.